

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun


- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-avgust holatiga ko'ra viloyatda 2 892 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi quyidagilarga:

- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 643 ta (22,2 %);
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 602 ta (20,8 %);
- tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – 230 ta (8,0 %);
- mebel ishlab chiqarish – 188 ta (6,5 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 183 ta (6,3 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 123 ta (4,3 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi (2026-yil 1-iyun holatiga ko'ra)



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 182 712,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	182 712,7	106,8
Navoiy sh.	165 839,5	105,9
Zarafshon sh.	466,8	108,6
G'ozg'on sh.	128,3	107,2
tumanlar:		
Karmana tumani	7 341,8	105,6
Konimex tumani	514,2	107,3
Qiziltepa tumani	940,8	113,2
Navbahor tumani	674,4	107,4
Nurota tumani	271,1	109,8
Tomdi tumani	1 305,2	350,3
Uchquduq tumani	205,4	110,5
Xatirchi tumani	1 200,6	117,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 159 266,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (87,2 %)ni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 18 124,5 mlrd so'm (9,9 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5 028,0 mlrd so'm (2,8 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 294,2 mlrd so'm (0,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyul oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 82,7 tonna Tvorog va tvorogdan mahsulotlar (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 53,1 % ga oshgan), 635,0 ming tonna sement (50,0 % ga kamaygan) hamda 2 040,6 ming m² to'qilgan gilamlar (31,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	13,9	21,7	5,7
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	49,7	54,0	82,7
Yogurt, tonna	10,1	19,7	32,2
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, ming d	2 038,7	1 444,4	1 281,1
To'qilgan gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari, ming m ²	1 104,0	1 554,0	2 040,6

Azot, ming m3	67,6	309,5	180,1
Argon, ming m3	769,4	1 105,2	699,6
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming t	333,5	324,7	299,3
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	6,8	8,0	7,9
Portlandsement, ming t	1 400,5	1 270,5	635,0

**2024-2026-yillarning yanvar-iyul oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 88,4 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-iyul oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,3 % (6,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 90,2 % (85,0 %), quyi texnologiyali 4,4 % (8,1 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 104,1 % ni tashkil etdi, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 90,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	6 516,3	4 805,0	5 003,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 833,5	2 590,9	2 337,7
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1 229,1	1 248,0	1 302,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 18,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 84,2 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 27,8 % ga ko'paygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	32,0	188,9	222,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	82,1	46,5	59,4
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	28,8	11,8	21,7

*2024-2026-yillarning yanvar-iyul oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 614,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,9 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'ZDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

